

UO'K 619.636.01

OROLBOIYI EKOTIZIMIDAGI QORAMOLLARNING VITAMIN-MINERALLAR ALMASHINUVI BUZILISHLARINING O'ZIGA HOS HUSUSIYATLARI.

Seypullayev A.K. - Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali katta o'qituvchisi.

Yoldashova S.O -Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali Veterinariya sanitariya ekspertizasi yo'nalishi talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada Orolbo'yi ekologik tizimi hududida parvarishlanayotgan sigirlar orasida makro va mikroelementlar yetishmovchiligi oqibatida vitamin-mineral moddalar almashinuvi buzilishlaridan kelib chiqdigan kasalliklar haqida ma'lumotlar berilgan. Bu esa zotli qoramollarning Qoraqalpog'istonning og'ir sharoitidagi hayvonlarning qonda elementlar yetishmovchiligini zamonaviy dori preparatlarini qo'llash oqibatida, ularning guruhli davolash va oldini olish usullarining ilmiy tadqiqotlar ma'lumotlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: oziqa, vitamin-minerallar, gipoivitaminoz, mikroelementlar, monokaltsiyfosfat, multivit.

Kirish

Ko'pchilik vitamin va mikroelementlar almashinuvi buzilishlari hayvonlarning oziqalarida, suvida va tuproqda ularning yetishmasligi oqibatida kelib chiqadi. Orolbo'yi hududi organizmga kerakli bo'lgan elementlar, ya'ni marganets, magniy, yod, rux va boshq. Yetishmaydigan geoekologik hudud hisoblanadi. Bu elementlarning yetishmasligi albatta bu tuproqdan olinadigan oziqa tarkibida ta'sir qiladi. Shu sababli ham mazkur maqola chorvachilik uchun dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot ob'ekti va materiallari

Tadqiqot uchun material sifatida ushbu fermer xo'jaliklarining sigirlaridan qon namunalari olingan. Metabolik kasalliklar uchun gumon qilingan ba'zi hayvonlardan qon namunalari tanlab olindi. Qon olishdan oldin barcha chorva mollari turli xil gipovitaminoz va mikroelementoz uchun klinik tekshiruvdan o'tkazildi.

Metabolik kasalliklarning ko'plab kasalliklarini aniqlash uchun ular tibbiy ko'rik ma'lumotlaridan foydalanganlar. Dispanserizatsiya jarayonida zootexnik, agrokimyoviy va veterinariya tahlillari va normalaridan foydalangan holda iqtisodiyotga har tomonlama baho berildi.

Fermaning zootexnik tahlili hayvonlarni saqlash sharoitlarini, bino ichida gaz almashinuvini, xonaga zararli bo'lgan turli xil gazlarning tarkibini, binolarning yoritilishini, kuniga ovqatlanish miqdorini, ozuqa turlarini va ularning me'yorlarini aniqlash bilan amalga oshirildi.

Klinik tadqiqotda barcha hayvonlarda umumiy holat, terining holati, yaltiroqligi, shilliq pardalarning rangi, nafas olish tezligi, puls, katta qorinning qisqarishi, ko'krak suyagining qiysayishi, oxirgi dum umirtqalarining va qovurg'alarining so'rilishlari, kifoza va boshqa singari suyaklardagi patologik o'zgarishlar tekshirildi.

Ozuqa tarkibidagi minerallar oz miqdorda yoki ularning ichaklarda yomon singishi suyaklarning demineralizatsiyasiga olib keladi va shu bilan bu minerallarning suyaklardan so'rilishiga olib keladi. [2-137b].

Ba'zi olimlarning fikriga ko'ra [3; 141b] minerallar muntazam ravishda tanaga kirishi kerak, chunki ular doimo tanadan siydik, najas, ter, sut bilan chiqariladi. Shuning uchun ozuqada elementlarning yetishmasligi nafaqat ba'zi organlarning, balki tananing barcha tizimlarining disfunktsiyasiga olib keladi. Minerallarning yetishmasligi normal fiziologik jarayonlarning o'zgarishiga olib keladi.

Ayniqsa, mikroelementlarning barcha etishmovchiligi hayvonlarning sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatadigan va gipoxromik anemiya, alimentar osteodistrofiya, gipomagnezik tetaniya, gipokuporoz, gipokobaltoz va boshqalar kabi turli xil mikroelementli kasalliklar bilan namoyon bo'ladigan metabolizmning bir yoki boshqa buzilishiga olib keladi.

Olingan qon namunalari mikro va makro elementlarga tekshirildi. Qon namunasini tekshirish O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston filiali laboratoriyasida "Rigas" apparatida spektrofotometrik usulda o'tkazildi. Tadqiqotda sigirlar sut mahsuldorligi, laktatsiya davri va sigirlarning yoshini hisobga olgan holda 10 bosh sigirdan 6 guruhga bo'lib olib borildi.

Hayvonlarning birinchi guruhi xo'jalik ratsionda saqlangan, ya'ni, 15 kg makkajo'xori silosi, 3 kg bug'doy kepagi, 4 kg beda pichan berilib borildi.

Ikkinchi guruh sigirlariga oziqasiga kuniga 50 gr/bosh monokaltsiyfosfat (MKF) qo'shib berildi.

Uchinchi guruhga oziqa va MKF dan tashqari muskul orasiga haftada 1 marta 10 ml dan Trivit preparati inyeksiya qilindi.

To'rtinchi guruhga oziqa va MKF dan tashqari Multivit+minerallar haftasiga 1 marta 10ml/bosh inyeksiya qilinib borildi.


Beshinchi guruhga IV-guruhdagi preparatlardan tashqari «E-selen» haftasiga 1 marta 10ml/bosh inyeaksiya qilindi.

Oltinchi guruhga V-guruh preparatlaridan tashqari Katozal-100 ni 20 ml dan inyeaksiya qilindi.

Tajriba mart-iyul oylarida 90 kungacha davom etdi. Tajribagacha sigirlardan qon namunalari olinib, har hil elementlar tuzlariga tekshirildi. (Pastdagi diagrammani ko'ring).



1-rasmda «Fayzulla ata» fermer xo'jaligida osteodistrofiya kasalligi bilan kasallangan sigir va 2-rasmda marganets yetishmovchiligi bilan kasallangan sigir (tilni o'ynatish holati) «Seyit sharwa» fermer xo'jaligi.



Barcha guruhdagi hayvonlar kerakli davolash muolajalari o'tkazilgandan keyin kaltsiy, fosfor, marganets, mis, kobalt va magniy elementlari me'yoriga yaqinlashdi.

Yuqorida olingan qon tahlillari shuni ko'rsatdiki, davolashdan keyin barcha ko'rsatkichlar me'yorga yaqinlashdi. Bu esa hayvonlarning umumiy holatining, ko'p turdagi modda almashinuvining normallashtirishiga va sog'lig'ining yaxshilanishiga olib keldi.

Magniy miqdori tajriba boshida o'rtacha $0,91 \pm 0,01$ - $1,10 \pm 0,01$ mkg% ni tashkil etdi. Tajriba oxiriga kelib bu ko'rsatkich nazorat guruhida $0,28$ mkg% ($0,62 \pm 0,01$) ga, I tajriba guruhida $0,12$ mkg% ($0,8 \pm 0,01$), II tajriba guruhida $0,04$ mkg% ($1,06 \pm 0,01$)

kamaygan bo'lsa, III, IV va V tajriba guruhlarida esa, mos ravishda, 0,88, 1,23 va 1,44 mkg% ga oshishi kuzatildi.

Mis miqdori tajriba boshida o'rtacha $23,1 \pm 0,2$ - $23,6 \pm 0,2$ mkg% ni tashkil etdi. Tajriba oxiriga kelib bu ko'rsatkich nazorat guruhida 0,28 mkg% ($0,62 \pm 0,01$) ga, I tajriba guruhida 1,6 mkg% ($21,4 \pm 0,2$), II tajriba guruhida 1,0 mkg% ($22,5 \pm 0,3$) kamaygan bo'lsa, III, IV va V tajriba guruhlarida esa, mos ravishda, 7,2, 6,9 va 11,4 mkg% ga oshishi kuzatildi.

Marganets miqdori tajriba boshida o'rtacha $13,0 \pm 0,02$ - $13,6 \pm 0,04$ mkg% ni tashkil etdi. Tajriba oxiriga kelib bu ko'rsatkich nazorat guruhida 2,5 mkg% ($11,1 \pm 0,02$) ga, I tajriba guruhida 0,2 mkg% ($12,9 \pm 0,01$), II tajriba guruhida 0,4 mkg% ($13,1 \pm 0,03$) kamaygan bo'lsa, III, IV va V tajriba guruhlarida esa, mos ravishda, 1,7, 3,0 va 11,6 mkg% ga oshishi kuzatildi.

Kobalt elementi tajriba boshida kuzatilmadi. Tajriba oxiriga kelib bu ko'rsatkich nazorat va I tajriba guruhida ham kuzatilmadi. III, IV va V tajriba guruhlarida esa, mos ravishda, o'rtacha 2,7, 2,7 va 2,8 mkg% ni tashkil etdi.

Rux miqdori tajriba boshida o'rtacha $10,9 \pm 0,01$ - $12,1 \pm 0,02$ mkg% ni tashkil etdi. Tajriba oxiriga kelib bu ko'rsatkich nazorat guruhida 1,2 mkg% ($10,9 \pm 0,01$) ga, I tajriba guruhida 0,9 mkg% ($11,0,4 \pm 0,01$) ga, II tajriba guruhida 0,3 mkg% ($11,5 \pm 0,02$) ga kamaygan bo'lsa, III, IV va V tajriba guruhlarida esa, mos ravishda, 2,5, 1,9 va 2,9 mkg% ga oshishi kuzatildi.

Selen miqdori tajriba boshida o'rtacha 0,011 – 0,018 mkg% ni tashkil etdi. Tajriba oxiriga kelib bu ko'rsatkich nazorat guruhida 0,005 mkg% (0,006) ga, I tajriba guruhida 0,006 mkg% (0,012) ga, II tajriba guruhida 0,006 mkg% (0,010) ga, III tajriba guruhida 0,003 mkg% (0,011) kamaygan bo'lsa, IV va V tajriba guruhlarida esa, mos ravishda, 0,019 va 0,035 mkg% ga oshishi kuzatildi.

Xulosa

1. Hayvonlarning elementlar yetishmovchiligida oziqasiga organism uchun kerakli bo'lgan makro va mikro elementlarni vitaminlar premiksi sifatida qo'shish kerak.

2. Yiliga 2 marta (bahor va kuzda) qonini elementlar tarkibini tekshirib turish kerak.

3. Oldini olish uchun vaqti-vaqti bilan oziqa va tuproqni makro va mikroelementlarga tahlil qilish kerak, Zarurlik to'g'riganda tuproqqa shu elementlar tuzlarini qo'shish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bakirov B., Seypullaev A., Kamalova A. Ishki ju'gimsiz kesellikler. Sabaqliq. Toshkent-2023.

2. Особенности нарушения обмена веществ при эндемическом зобе у коров. Б.Бакиров, Н.Б.Рузикулов, О.Р.Бобоев, Ю.Улугмуродов. Вестник Ошского Государственного университета.2021г.
3. Эндокринные особенности метаболических нарушений у продуктивного крупного рогатого скота. Б.Бакиров., Н.Б.Рузикулов., О.Р.Бобоев., М.Эргашев. Мировая наука: Проблемы и инновации. Стр 250-252. 2022г.
4. N.Farmonov, R.E.Rejepbayev, S.K.Tajimova. VITAMINS A, D, E AND K IN CALVES AND THEIR EFFECTS ON THE BODY . Web of Agriculture: Journal of Agriculture and Biological Sciences. -36-38, 2025-yil. ISSN (E): 2938-3781/ Vol 3.Issue 3. March 2025.